

# **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA XAMKORLIGINING TA'LIM TARBIYADAGI AXAMIYATI**

**Maktabgacha ta'lism metodikasi  
kafedra o'qituvchisi Norqo'zieva M.A  
1-kurs talabasi Abdunazarova  
Sitora Baxtiyor qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lism tashkilotlari bilan oila hamkorligi, bola tarbiyasida ota-onas mas`uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish mazmuni yoritilgan.

**Аннотация:** В статье раскрыто содержание сотрудничества семьи с дошкольными образовательными организациями, повышение родительской ответственности в воспитании детей, оснащение их педагогическими и психологическими знаниями.

**Annotation:** The article reveals the content of family cooperation with preschool educational organizations, increasing parental responsibility in raising children, equipping them with pedagogical and psychological knowledge.

**Kalit so'zlar:** Oila,tarbiya, ota-onas mas`uliyati, oilaviy muhit,axloq,odob, insoniy munosabatlari, mehr-u oqibat, farzand tarbiyasi,jamiyat,ma'naviy muhit,pedagogik tizim,pedagogik madaniyat

**Klyuchevыe slova:** semya, vospitanie, roditelskaya otvetstvennost, semeynoe okrujenie, etika, nравы, chelovecheskie otnosheniya, dobrota, vospitanie detey, obychestvo, duxovnaya sreda, pedagogicheskaya sistema, pedagogicheskaya kultura.

**Key words:** family, upbringing, parental responsibility, family environment, ethics, morals, human relations, kindness, raising children, society, spiritual environment, pedagogical system, pedagogical culture

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat-e'tibori va himoyasida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila masalasiga ham alohida urg'u berilgan. Konstitutsiyamizda:


“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidur hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb yozilgan.

Oila –Muqaddas dargoh. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir”. Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta’minalash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta’lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma’suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko‘p omillarga, avvalo, axloqiy-ma’naviy muhitga ham bog‘liq. Ta’lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Ona yurtiga muhabbatni shakllantirish, ma’rifatli va ma’naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta’minalash, bolalarning ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-onan mas`uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzARB masalasi hisoblanadi.O`zbek, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo`yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta`lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bola tarbiyasida bu ikki yo`nalish biri ikkinchisining o`rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to`ldiradi.Sog`lom muhitda sog`lom bola o`sib ulg`aydi. Sog`lom muhitni yaratish oilada oila a`zolarining maktabgacha ta`lim tashkilotlarida pedagogik xodimlarning nechog`lik bilimdonligiga, zukkoligiga bog`liqdir. Ko`p xollarda bir xil yoshdagи bolalarning taraqqiyotida notekislikni ko`rish mumkin. Bolani jismonan, ma`nan, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va maktabgacha ta`lim tashkilotining hamkorligi muhim ahamiyati kasb etadi. Shuning uchun xar bir oiladagi pedagogik madaniyatni takomillashtirish zarur. Maktabgacha ta`lim tashkiloti murabbiylari tarbiya borasida ota-onalarga ota-

onalarga ham ta` sir o`tkaza olishlari, oila pedagogikasining nozik jihatlarini chuqr bilishlari kerak. Har bir guruh xonalarida ota-onalar sizlar uchun burchak tashkil qilinib, doimiy ravishda har bir oyda guruh bolalari taraqqiyotidagi o`zgarishlar aniq tahlil qilib ko`rsatilishi va shu asosda ota-onalar uchun tegishli maslahatlar, tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Ayrim bolalarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o`tkazib, tegishli yo`l-y`oriqlar beriladi. Masalan: nutqida, jismoniy o`sishida, xulqida kamchiligi bo`lgan bolalarni faqat tarbiyachining harakati bilan bartaraf qilish qiyin. Bolaning oiladagi faoliyati ham, mактабгача та’лим ташкilotidagi faoliyati ham yagona maqsadga bo`ysundirilgan bo`lishi kerak.

Ta’lim tizimining demokratlashuvi, innovatsion dasturlar mактабгача та’лим ташкilotining ham oila bilan o’zaro hamkorligi muammosini hal etish, Barkamol farzandni tarbiyalayotgan ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish sharoitlarini yuzaga keltirish yo’llarini tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu o’rinda esa mактабгача та’лим ташкiloti tommidan oila bilan bog’liq bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda .Bular quyidagi jadvalda aks etgan



Tadqiqotchilarning fikricha maktabgacha ta’lim va oila o’rtasidagi xamkorik faoliyati jarayonida ota –onalarning farzand tarbiyasiga oid bo’lgan ba’zi bir kamchiliklari ko’zga tashlanib qolmoqda. Bular:

- ota-onalarning ta’limga bo’lgan ehtiyojlari va ularni qondirishning imkoniyatini mavjud emasligi;
- —ota-onalarda pedagogik madaniyat darajasining pastligi va bolani tarbiyalashda psixologiya asoslarini bilmasliklari hamda ba’zi bir maktabgacha ta’lim tashkilotilarida ta’lim tizimining talab darajasida emaslidir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o’rtasidagi xamkolik faoliyatida bolalarning hayot tarzi va ijtimoiy muhit bilan bog’liq bo’lgan ba’zi bir kamchiliklarni bartaraf etish, xamda ularni jamoada va jamiyat xayotida o’z o’rnini topishlari bevosita ota- onaga, oilaviy muhitga xam bog’liqdir. Bu jarayonda esa oila bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari bolalarni tarbiyalash va o’qitishdagi ham fikrlilik qilishlari, ular bilan doimiy aloqa o’rnatishlari, tarbiyachilar bilan o’zaro muloqotda bo’lishlari tavsiya etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotini oila bilan bevosita bog’lovchi vosita – bu bolalarimiz hisoblanadi. Bolajonlarimiz bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta’minlash orqali ota-onalarga ta’sir ko’rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.**

1. Z.B.Qodirov. Komil inson tarbiyasining pedagogik asasrlari. T-2001.
2. M.Quramov. Oila – milliy tarbiyao‘chog‘i. Xalqta’limi .jurnal. T-2007
3. U.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila xamkorligi. T-2008.
4. GulnoraKushakova, XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA OILA MASALALARINING TALQIN ETILISHI, Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №45 (science.i-edu.uz, jspi.uz)
5. GulnoraKushakova, ABU NASR FAROBIY IJODIDA OILADA FARZANDLARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

HAQIDA , Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №45 (science.i-edu.uz, jspi.uz)

6. Usmonova Maxfuz.(2021). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING O'ZARO HAMKORLIGI SHAKLLARI. *Maktabgachata'lismjurnali*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3063>
7. Usmonova Maxfuz.(2021). OILADA BOLANING KUN TARTIBINI TO`G`RI TASHKIL QILISH. *Maktabgachata'lismjurnali*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2712>
8. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILAVIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHGA OID QARASHLARI  
M Norquziyeva - Maktabgacha ta'lismjurnali, 2021
9. BO'LAJAK O'QITUVChILARNING KASBIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVChI DEFORMATSIYaLARNING OLDINI OLISH TEXNOLOGIYaSI  
MA Norqo'zieva - Academic research in educational sciences, 2021
10. BO'LAJAK O'QITUVChILARNING KASBIY BARQARORLIGINI TA'MINLAShNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI  
MA Norkuzieva - Academic research in educational sciences, 2021
11. THE ROLE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN SHAPING THE PROFESSIONAL STABILITY OF STUDENTS.  
M Norquzieva - Theoretical & Applied Science, 2020
12. Buronova, S. (2021). MAHALLA, OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TAShKILOTI HAMKORLIGINING AHAMIYATI. *Maktabgachata'lismjurnali*.
13. Buranova, S. (2020). YeDINSTVO V OSUЩESTVLENII INDIVIDUALNOGO PODXODA V DOShKOLNOY OBRAZOVATELNOY ORGANIZATSII I SEME. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*.
- 14 Xamidova, G. (2020). Volani muktabga tayyorlashda oila va maktabgacha ta'lismuassasasining hamkorligi. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*.

**15. Theoretical bases of upbringing of preschool children in the national spirit in the organizations of preschool education**

S. J. Sodirovich - 2021